

**DASTLABKI TERGOV JARAYONIDA SHAXSNING HUQUQ VA
ERKINLIKLARINI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY
KAFOLATLARI**

Ganiyev Shaxobitdin Xolmatovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik

fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi, mayor

tel: +99890-317-10-27.

shax.ganiyev86@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dastlabki tergov jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyada hamda unga oid qoidalar boshqa qonun va qonunosti hujjatlarda aks ettirilganligi tahlil qilib chiqilgan, shuningdek uning samarali jihatlariga ham e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *dastlabki tergov, sud-huquq tizimi, jinoyat, jinoyi jazo, demokratlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi.*

**CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES FOR ENSURING AN
INDIVIDUAL’S RIGHTS AND FREEDOMS DURING THE PRELIMINARY
INVESTIGATION PROCESS**

Annotation. *This article analyzes how the constitutional and legal guarantees for ensuring an individual’s rights and freedoms during the preliminary investigation process are reflected in the newly revised Constitution, as well as in related provisions of other laws and subordinate legal acts. Particular attention is also paid to the effective aspects of these guarantees.*

Keywords: *preliminary investigation, judicial and legal system, crime, criminal punishment, democratization, law enforcement agencies, suspect, accused, defendant.*

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 1948 yil 10 dekabr kuni qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasiga ko‘ra, har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan

bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga egadir⁷². Mazkur norma shaxs huquqlarining samarali tiklanishi huquqiga egaligini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar davomida sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada olib borilayotgan islohotlarning rivojlanish bosqichlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning ikkinchi ustuvor yo‘nalishi “qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish”ga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash⁷³, kabi ishlarni amalga oshirish belgilab olinganligida ko‘rishimiz mumkin.

Shundan so‘ng, ushbu ustuvor yo‘nalishga muvofiq 2017 yil 30 noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5268-son va 2020 yil 10 avgustdagi «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6041-son Farmonlari hamda 2018 yil 14 maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3723-son Qarori qabul qilindi.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasi borasida amalga oshirilgan besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, ushbu strategiyada 100 ta maqsad ko‘zlangan bo‘lib, 17-maqsadi, huquqni muhofaza

⁷² Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil 10 dekabr.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son).

qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish, sifatida ko‘zlandi. Ushbu maqsad borasida - ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish; qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda «Qonun - ustuvor, jazo - muqarrar» tamoyilini bosh mezonga aylantirish; tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish; huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish⁷⁴, kabi ishlarni amalga oshirish belgilab olindi.

Bundan tashqari, 2023 yil 01 maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning VII-bobi shaxsiy huquq va erkinliklarga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda dastlabki tergov jarayoni bilan bog‘liq shaxsning huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlari mustahkamlangan.

Jumladan, 25-modda. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi. 26-modda. Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas. 27-modda. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart. 28-modda. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasini Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024 y., 06/24/221/0003-son).

bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas. 29-modda. Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to‘g‘risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so‘roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni engillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi, ularga etkazilgan zararining o‘rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. 30-modda. Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas. 31-modda. Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yishni va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda

va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. 32-modda. Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. Har kim O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistonga to‘sqinliksiz qaytish huquqiga ega. 33-modda. Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi. 34-modda. Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta‘minlashi shart. 35-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi⁷⁵.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxsning huquq va erkinlarini konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlab qo‘yilganligi hamda unga oid qoidalar boshqa qonun va qonunosti hujjatlarda ham takomillashtirib borilishi – dastlabki tergov jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlashning konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlari yanada mustahkamlanib borishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil 10 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T-2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон)

4. O‘zbekiston Respublikasini Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4850-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5268-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6041-son Farmoni.